


SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.




Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra)

birlik




o'tgan yilga nisbatan




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2022- yil yanvar-noyabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar-noyabr oylarida 4 045 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 2 499 ta, oilaviy korxonalar - 818 ta, xususiy korxonalar - 467 ta, muassasalar - 156 ta va boshqalar - 105 tani tashkil etdi.



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 6 304 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 519 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 817 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 460 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 818 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 316 taga yoki 0,7 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 14 285 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 334 taga yoki 19,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 672 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 236 taga yoki 19,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 499 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 234 taga yoki 9,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 641 tani tashkil etib, ulardan 627 tasi yoki 97,8 % faoliyat ko'rsatmoqda.


Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda ro'yxatdan o'tgani 55 taga yoki 9,4 % ga, faoliyat ko'rsatayotgani 59 taga yoki 10,4 % ga ortganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 76 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

11



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|--|--------------|--------------|--------------|---------------|---------------|
| Jami | 5 620 | 7 560 | 9 171 | 11 436 | 13 672 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 618 | 816 | 1 203 | 1 629 | 2 132 |
| sanoat | 908 | 1 218 | 1 452 | 1 818 | 1 945 |
| qurilish | 956 | 1 356 | 1 518 | 1 815 | 2 064 |
| savdo | 1 641 | 2 294 | 2 878 | 3 647 | 4 566 |
| tashish va saqlash | 505 | 580 | 632 | 657 | 696 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 216 | 302 | 350 | 428 | 514 |
| axborot va aloqa | 80 | 100 | 112 | 146 | 181 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 65 | 93 | 109 | 157 | 193 |
| boshqa turlar | 631 | 801 | 917 | 1 139 | 1 381 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|--|------------|------------|------------|------------|------------|
| Jami | 167 | 337 | 413 | 568 | 627 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 47 | 88 | 103 | 126 | 130 |
| sanoat | 51 | 91 | 113 | 134 | 134 |
| qurilish | 10 | 18 | 21 | 40 | 44 |
| savdo | 34 | 92 | 128 | 206 | 244 |
| tashish va saqlash | 8 | 7 | 7 | 10 | 12 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4 | 17 | 16 | 22 | 25 |
| axborot va aloqa | 1 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2 | 4 | 5 | 7 | 8 |
| boshqa turlar | 10 | 18 | 18 | 21 | 28 |

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14

| | Jami | shundan: | |
|----------------------|------|-------------------|-------------------|
| | | qo'shma korxonona | xorijiy korxonona |
| Surxondaryo viloyati | 627 | 150 | 477 |
| Termiz sh. | 363 | 36 | 327 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 6 | 5 | 1 |
| Angor | 22 | 6 | 16 |
| Bandixon | 4 | 2 | 2 |
| Boysun | 10 | 6 | 4 |
| Muzrabot | 17 | 7 | 10 |
| Denov | 23 | 12 | 11 |
| Jarqo'rg'on | 15 | 9 | 6 |
| Qumqo'rg'on | 15 | 7 | 8 |
| Qiziriq | 10 | 1 | 9 |
| Sariosiyo | 21 | 11 | 10 |
| Termiz | 51 | 15 | 36 |
| Uzun | 42 | 20 | 22 |
| Sherobod | 13 | 6 | 7 |
| Sho'rchi | 15 | 7 | 8 |

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 32 905 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,0%), Denov (11,6%), Jarqo'rg'on (8,1%), Sho'rchi (6,9%), Qumqo'rg'on (6,8%), Sherobod (6,8%), Termiz (6,5%), Sariosiyo (5,2%), Uzun (5,2%), Angor (4,8%), Boysun (4,7%), Qiziriq (4,7%), Muzrabot (4,6%), Oltinsoy (3,9%) va Bandixon (2,2%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 4 045 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda ularning Termiz sh. (16,5%), Denov (11,1%), Sherobod (8,6%), Jarqo'rg'on (7,6%), Qumqo'rg'on (6,6%), Sho'rchi (6,6%), Boysun (5,7%), Angor (5,3%), Sariosiyo (5,1%), Muzrabot (5,1%), Termiz (4,7%), Uzun (4,6%), Oltinsoy (4,4%), Qiziriq (4,1%) Bandixon va (4,0%) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 672 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,4 %), Denov (9,7 %), Termiz (8,4 %), Jarqo'rg'on (7,3 %), Sherobod (6,9 %), Qumqo'rg'on (5,8 %), Sho'rchi (5,6 %), Boysun (5,0 %), Angor (4,7 %), Qiziriq (4,5 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,4 %) va Bandixon (2,3 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




2022- yil yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 818 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Denov (12,1 %), Oltinsoy (10,8 %), Boysun (10,4 %), Termiz sh. (7,9 %), Sherobod (7,0 %), Qiziriq (6,6 %), Jarqo'rg'on (6,3 %), Sariosiyo (5,9 %), Angor (5,2 %), Uzun (5,0 %), Muzrabot (5,0 %), Bandixon (4,9 %), Sho'rchi (4,8 %), Termiz (4,3 %) va Qumqo'rg'on (3,8 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The header features the national emblem, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI', and the 'UZSTAT' logo. A navigation menu includes 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is titled 'INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari'. A dropdown menu is open, listing services: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code). The form includes a field for 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from image) and a 'Qidiruv' (Search) button. The left sidebar contains 'RASMIY STATISTIKA' with categories like 'E'lon qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', 'Makro-orsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The right sidebar contains 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' with categories like 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-revizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**